



New Day in Medicine  
Новый День в Медицине

NDM



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.  
EISSN 2181-2187

5 (79) 2025

**Сопредседатели редакционной коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОНОВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛОТОВА  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВ  
А.С. ИЛЬЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОЕВ  
С.А. ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
Б.З. ХАМДАМОВ  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН  
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ**

**NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**5 (79)**

**2025**

[www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz)

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

*май*

Received: 20.04.2025, Accepted: 06.05.2025, Published: 10.05.2025

UDK 616.31-053.6:613.95

## BALOG'AT YOSHIDAGI QIZLARDA STOMATOLOGIK SALOMATLIK: KLINIK VA TIBBIY-IJTIMOIY OMILLAR TAHLILI

Kuryazov Shoxrux Akbarovich, Kuryazov Akbar Kuramboyevich,  
Xabibova Nazira Nasulloevna <https://orcid.org/0000-0002-0900-3828>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro, G'ijduvon ko'chasi,  
23-uy. Telefon: +998 (65) 223-00-50, email: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Rezume

*Ushbu adabiyotlar sharhi maqolasida balog'at yoshidagi qizlarda og'iz bo'shlig'i salomatligini saqlashga ta'sir qiluvchi klinik, gigiyenik va ijtimoiy omillar keng tahlil qilingan. O'smirlilik davri organizmning jadal o'sish, gormonal o'zgarishlar va psixologik barqarorlik shakllanishi davri bo'lib, stomatologik salomatlik bu jarayonlarning muhim ko'rsatkichidir. Maqolada parodontal kasalliklar, kariyes, gigiyena ko'nikmalarini va sog'lom turmush tarzining roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tibbiy-ijtimoiy profilaktika choralarining samaradorligi baholanadi.*

*Kalit so'zlar: balog'at yoshi, o'smirlar, stomatologik salomatlik, og'iz gigiyenasi, parodontal kasalliklar, tibbiy-ijtimoiy profilaktika*

## СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ДЕВОЧЕК ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА: АНАЛИЗ КЛИНИЧЕСКИХ И МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ

Kурязов Шохрух Акбарович, Курязов Акбар Курамбоевич,  
Хабибова Назира Насуллоевна <https://orcid.org/0000-0002-0900-3828>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,  
Бухара, ул. Гиждуван. 23 Телефон: +998 (65) 223-00-50, e-mail: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Резюме

*В данной обзорной статье подробно анализируются клинические, гигиенические и социальные факторы, влияющие на стоматологическое здоровье девочек в период полового созревания. Подростковый возраст сопровождается интенсивным физическим ростом, гормональными изменениями и психоэмоциональной нестабильностью, что делает здоровье полости рта особенно уязвимым. Рассматриваются особенности кариеса, заболеваний пародонта, уровень гигиенических навыков и роль здорового образа жизни, а также эффективность медико-социальных профилактических мероприятий.*

*Ключевые слова: половое созревание, подростки, стоматологическое здоровье, гигиена полости рта, пародонтальные заболевания, медико-социальная профилактика*

## ORAL HEALTH IN ADOLESCENT GIRLS: ANALYSIS OF CLINICAL AND SOCIO-MEDICAL FACTORS

Kuryazov Shoxrux Akbarovich, Kuryazov Akbar Kuramboyevich,  
Khabibova Nazira Nasulloevna <https://orcid.org/0000-0002-0900-3828>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, Gijduvan str., 23  
Phone: +998 (65) 223-00-50, email: [info@bsmi.uz](mailto:info@bsmi.uz)

### ✓ Resume

*This review article analyzes clinical, hygienic, and social factors influencing oral health in adolescent girls. Adolescence is a period of rapid physical growth, hormonal changes, and psychological development, during which oral health serves as a sensitive indicator. The article discusses caries, periodontal diseases, oral hygiene habits, and the role of a healthy lifestyle. The effectiveness of socio-medical preventive strategies is also evaluated.*

*Keywords: adolescence, teenage girls, oral health, oral hygiene, periodontal disease, socio-medical prevention*

### Dolzarbli

**O**‘smirlik yoshi — bu nafaqat biologik o‘sish, balki jamiyatda shaxs sifatida shakllanish jarayoni bo‘lib, qizlarda bu davr ayniqa fiziologik va psixologik murakkabliklar bilan kechadi. Ayni shu bosqichda sog‘lom hayot tarzini shakllantirish va salomatlikni saqlash bo‘yicha to‘g‘ri yondashuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘smir qizlarda stomatologik salomatlik esa, umumiy salomatlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu yoshda kariyes, gingivit, parodontal kasalliklar va boshqa patologiyalar tez-tez uchrashi mumkin. Tish go‘shtining yallig‘lanishi, milk qonashlari, yomon og‘iz hidi, gigiyena ko‘nikmalarining sustligi va gormonlar foni dagi o‘zgarishlar stomatologik muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

Yoshga xos bu o‘zgarishlar stomatologik muammolarning rivojlanishida asosiy omil bo‘lib, ular nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aksar hollarda o‘smir qizlar orasida tish yuvish qoidalariga amal qilmaslik, shirinliklarga moyillik, noto‘g‘ri ovqatlanish va stomatologik madaniyatning past darajada bo‘lishi sababli og‘iz bo‘shlig‘i salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, stomatologik profilaktika, tarbiyaviy tadbirlar, maktab va oilada sog‘lom gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish muhim masalaga aylanadi.

Ushbu maqola balog‘at yoshidagi qizlarda stomatologik salomatlikni saqlashga ta’sir qiluvchi asosiy klinik va ijtimoiy omillarni aniqlash, mavjud holatni ilmiy tahlil qilish va samarali profilaktik choralarini taklif qilishga qaratilgan.

Balog‘at yoshi — bu organizmda o‘ta keskin fiziologik o‘zgarishlar yuz beradigan davr bo‘lib, ayniqa estrogen va progesteron gormonlarining oshishi og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu gormonlar milk to‘qimalarining qon bilan ta‘minlanishini kuchaytirib, ularni giperemiyaga moyil holga keltiradi. Natijada, gingivit, milk qonashlari va shilliq qavat yallig‘lanishi tez-tez uchraydi (Sharma & Shrestha, 2020). Ko‘pgina tadqiqotlarda balog‘atga yetgan qizlarda gormonlar o‘zgarishi bilan bog‘liq gingivit holatlari yosh bolalar yoki o‘smir yigitlarga nisbatan yuqoriq aniqlangan (Mascarenhas va boshq., 2013).

Estrogenlarning oshishi milk kollagenining tarkibini o‘zgartirib, yallig‘lanishga sezuvchanlikni kuchaytiradi. Bu esa parodontal to‘qimalarda rezorbsiya va tiklanish jarayonlari o‘rtasidagi muvozanatni buzadi (Taba va boshq., 2005). Ayniqa, menstrual sikl davrida gingival to‘qimalarda o‘zgarishlar yaqqol namoyon bo‘lib, vaqtinchalik og‘riq, shish va qonash bilan kechadi (Laine, 2002). Shu sababli, balog‘at yoshidagi qizlarda har oygi fiziologik tsikllarga bog‘liq stomatologik monitoring juda muhim hisoblanadi.

**Jadval 1. Balog‘at yoshidagi qizlarda gormonal fon o‘zgarishlari bilan bog‘liq gingival o‘zgarishlar tasnifi**

| Klinik belgi                             | Kuzatilish vaqt (menstrual siklga nisbatan) | Klinik ko‘rinish                              | Ehtimoliy sabab  |
|--|---|---|--|
| Gingival giperemiy                       | Ovulyatsiya oldi (12–14 kun)                | Milkda qizarish, shish                        | Estrogen darajasining yuqoriligi (Laine, 2002)                             |
| Gingival qonash                          | Hayz ko‘rish davrida (1–5 kun)              | Tish tozalaganda yoki o‘z-o‘zidan qon ketishi | Progesteron ta’sirida kapillyarlar o‘tkazuvchanligi (Taba va boshq., 2005) |
| Yallig‘lanish va sezuvchanlik kuchayishi | Ikkinci faza (14–28 kun)                    | Og‘riq, shish, ovqat chaynashda noqulaylik    | Gormonlarning parodontal to‘qimaga ta’siri (Sharma & Shrestha, 2020)       |
| Og‘izda achishish va og‘riqlilik         | To‘liq menstrual sikl davomida              | Diffuz achishish, suyuqlikka sezuvchanlik     | Shilliq qavatdagagi gormonal sezuvchanlik (Mascarenhas va boshq., 2013)    |

Ushbu jadvalda balog‘at yoshidagi qizlarda kuzatiladigan gingival o‘zgarishlarning vaqtga va gormonal foniga bog‘liqligi bayon qilingan. Tadqiqotlarga ko‘ra, estrogenga boy ovulyatsiya davrida milkar qizarib, shishadi, hayz davrida esa qonash holatlari kuzatiladi (Laine, 2002). Ushbu o‘zgarishlar doimiy emas, ammo ularning takrorlanib turishi og‘iz bo‘shlig‘i salomatligiga doimiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu holatlar yoshga xos fiziologik normativ deb qaralsa ham, stomatolog tomonidan nazorat qilinmasa, yallig‘lanishga va doimiy parodontal muammolarga olib kelishi mumkin (Taba va boshq., 2005).

Balog‘at yoshidagi qizlarda stomatologik salomatlik darajasi ularning og‘iz gigiyenasi bo‘yicha shakllangan kundalik odatlari bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning katta qismi tish yuvish texnikasi, tish yuvish davomiyligi va vaqtiga yetaricha e’tibor bermaydi (Petersen & Baez, 2013). O‘smirlar orasida olib borilgan so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, balog‘at yoshidagi qizlarning faqat 30–40% atrofidagisi kuniga ikki mahal to‘g‘ri tish yuvadi (Bagramian va boshq., 2009).

Gigiyenik bilimlar yetishmasligi, reklama ta’siri, yeguliklar tanlovi va zamonaviy turmush tarzi ham gigiyenik odatlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Maktabgacha va maktab yoshida berilgan sog‘lom gigiyena tarbiyasi keyingi yillarda samarali natija beradi, shu sababli sog‘lom gigiyena dasturlarini mакtablar darajasida joriy etish dolzarb hisoblanadi (Pine va boshq., 2015). Gigiyenaga oid dasturlar, ayniqsa, qizlar orasida tish ipi, og‘iz chayqovchi vositalar va tish cho‘tka texnikasini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Balog‘atga yetgan qizlarda kariyes va parodontal kasalliklarning uchrash tezligi o‘smirlik davridagi xatti-harakatlar va parhez odatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shakarli mahsulotlarni haddan tashqari iste’mol qilish, tez-tez tamaddi qilish va tish tozalashning sustligi kariyesning rivojlanishiga olib keladi (Sheiham & Watt, 2000). Ayrim tibbiy ma‘lumotlarda ko‘rsatilishicha, o‘smir qizlarning 70% dan ortig‘ida bir yoki bir nechta kariyes o‘chog‘i mavjud bo‘lib, bu holat og‘ir parodontal kasalliklarga olib kelishi mumkin (World Health Organization, 2012).

Shuningdek, parodontal muammolar faqat gigiyena yetishmasligi bilan emas, balki immun tizimning gormonal o‘zgarishlarga javobi bilan ham bog‘liq. Mahalliy immunitetning susayishi, og‘iz florasining disbalansi va yallig‘lanishga moyillik bu kasalliklarning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi (Kinane va boshq., 2005). Ayniqsa, qizlarda braketlar taqilishi, tish o‘sishidagi anomaliyalar va noto‘g‘ri protezlar holatni yanada murakkablashtiradi.

Stomatologik salomatlik faqat biologik va gigiyenik omillar bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy holat, oila madaniyati va ota-onaning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan yondashuvi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Oilaviy daromad darajasi, ota-onaning ta’limi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati o‘smir qizlarning stomatologik holatiga ta’sir ko‘rsatadi (Locker, 2000). Masalan, kam ta’milangan oilalarda og‘iz gigiyenasi vositalarini muntazam xarid qilish imkoniyati past bo‘ladi, bu esa uzoq muddatli sog‘liqqa salbiy ta’sir qiladi (Watt va boshq., 2012).

Shuningdek, onaning o‘z gigiyena odatlari qiz bolasiga bevosita ta’sir qilishi ilmiy adabiyotlarda tasdiqlangan. Agar ona sog‘lom og‘iz gigiyenasi kuzatsa, qizi ham bu odatni ko‘proq egallaydi (Mattila va boshq., 2000). Shu sababli, stomatologik salomatlikni saqlashga qaratilgan dasturlar ota-onani ham jalb etgan holda amalgalashirishi zarur.

O‘smir qizlarda stomatologik kasalliklarning oldini olish bo‘yicha samarali profilaktika dasturlari mavjud bo‘lsa-da, ularning amalda qo‘llanilishi va qamrovi yetarli emas. Juhon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, maktablarda stomatologik skrining, gigiyena treninglari va ftoridli vositalar bilan og‘izni chayish kabi tadbirlar o‘tkazilishi kerak (JSST, 2012). Afsuski, ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda bu dasturlar faqat ayrim hududlardagina joriy qilingan.

Profilaktik chora-tadbirlar nafaqat klinik, balki ijtimoiy yondashuvni ham o‘z ichiga olishi lozim. Tibbiyot va ta’lim tizimining o‘zaro hamkorligi, sog‘lom turmush tarziga doir darslar va ota-onalar bilan seminarlar — bularning barchasi ijobjiy natija beradi (Kay & Locker, 1998). Shu bois, har bir hududda sog‘lom avlodni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy stomatologik siyosat olib borilishi zarur.

## Xulosa

Balog‘at yoshidagi qizlarda stomatologik salomatlikni saqlash — bu nafaqat tibbiy, balki muhim ijtimoiy va tarbiyaviy masala hisoblanadi. Ushbu yoshda og‘iz bo‘shlig‘ining holati fiziologik gormonal o‘zgarishlar, psixologik yetilish va sog‘lom turmush tarzi elementlarining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, estrogenu progesteron gormonlarining siklik o‘zgarishlari gingival to‘qimalarning giperemiyasi, shishishi va qonash holatlariga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, parodontal kasalliklarning shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Gigiyena odatlari kam shakllangan, tish yuvish sifati va davomiyligi past bo‘lgan holatlarda kariyes va gingivit rivojlanishining chastotasi yuqori bo‘lishi qayd etilgan. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy holat va ota-onalarning gigiyenaga bo‘lgan munosabati ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kam ta’milangan

oilalarda yashovchi o'smirlar orasida stomatologik kasalliklar uchrashi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriroq ekanligi aniqlangan.

Ushbu omillarni kompleks yondashuvda tahlil qilish stomatologik kasalliklarning oldini olishda tibbiy, ijtimoiy va tarbiyaviy choralarini uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Maktablarda sog'lom gigiyenani shakllantirish bo'yicha dasturlar, ota-onalar bilan hamkorlikdagi sog'lom turmush tarzi seminarlar va qizlarga xos gormonal siklga mos stomatologik parvarish rejimlari samarali natija beradi.

Shunday qilib, balog'at yoshidagi qizlar uchun stomatologik salomatlikni ta'minlashda klinik monitoring, ijtimoiy ta'limga, davriy profilaktika, va ota-onalar bilan hamkorlik asosiy tamoyillar sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuvlar sog'lom ayollar avlodini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Laine, M.A. (2002). Effect of pregnancy on periodontal and dental health. *Acta Odontologica Scandinavica*, 60(5), 257–264.
2. Taba, M., Kinney, J., Kim, A.S., Giannobile, W.V. (2005). Diagnostic biomarkers for oral and periodontal diseases. *Dental Clinics of North America*, 49(3), 551–571.
3. Sharma, D., Shrestha, A. (2020). Hormonal influences on periodontal health in adolescent girls: A review. *Journal of Oral Health*, 12(2), 88–93.
4. Mascarenhas, P., Gapski, R., Al-Shammari, K., Wang, H.L. (2013). Influence of sex hormones on the periodontium. *Journal of Clinical Periodontology*, 30(8), 671–681.
5. Petersen, P.E., Baez, R.J. (2013). Oral health surveys: Basic methods. 5th ed. *World Health Organization*. Geneva.
6. Bagramian, R.A., Garcia-Godoy, F., Volpe, A.R. (2009). The global increase in dental caries: A pending public health crisis. *American Journal of Dentistry*, 22(1), 3–8.
7. Pine, C.M., Adair, P.M., Burnside, G., Brennan, L., et al. (2015). Barriers to the implementation of oral health programs in schools. *Community Dentistry and Oral Epidemiology*, 43(4), 299–305.
8. Sheiham, A., Watt, R.G. (2000). The common risk factor approach: A rational basis for promoting oral health. *Community Dentistry and Oral Epidemiology*, 28(6), 399–406.
9. World Health Organization. (2012). Oral health status of adolescents: Global data bank. Geneva: WHO.
10. Kinane, D.F., Lappin, D.F. (2005). Immune responses in periodontal disease. *Periodontology 2000*, 38(1), 54–68.
11. Locker, D. (2000). Deprivation and oral health: A review. *Community Dentistry and Oral Epidemiology*, 28(3), 161–169.
12. Watt, R.G., Listl, S., Peres, M., Heilmann, A. (2012). Social inequalities in oral health: From evidence to action. *International Centre for Oral Health Inequalities Research & Policy*.
13. Mattila, M.L., Rautava, P., Sillanpää, M., Paunio, P. (2000). Caries in five-year-old children and associations with family-related factors. *Journal of Dental Research*, 79(3), 875–881.
14. Kay, E.J., Locker, D. (1998). Is dental health education effective? A systematic review of current evidence. *Community Dentistry and Oral Epidemiology*, 26(4), 231–238.

**Qabul qilingan sana 20.04.2025**